

O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi	Tajriba guruhi (n=180)	7,8	11,1	-2,3	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,9	8,1	-1,3	0,12
O‘z-o‘zini qabul qilish	Tajriba guruhi (n=180)	7,2	9,4	-2,5	0,05
	Nazorat guruhi (n=270)	7,3	7,5	-0,8	0,20

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001

“Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash” metodikasi orqali rivojlantiruvchi trening dasturlarimizdan keyin barcha omillarda ahamiyatli farqlar qayd etildi. Jumladan, “Samimiylik” (t=-2,4; p<0,05), “O‘z-o‘ziga ishonch” (t=-2,5; p<0,05), “O‘z-o‘zini idora qilish” (t=-2,5; p<0,05) “O‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi” (t=-2,3; p<0,05) hamda “O‘z-o‘zini qabul qilish” (t=-2,5; p<0,05) omillarida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar kuzatildi.

Adabiyotlar

1. Моросанова В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека / Ин-т психологии РАН; Психологический ин-т РАО. — М.: “Наука”, 2010. —С. 8.
 2. Шадриков В. Д. Психологический анализ деятельности как системы [Текст] // Психологический журнал. 2008. Т. 1. № 3. — С.33-46.
 3. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии [Текст]. -М.: «Наука», 2003. —С. 446.
 4. McClelland, D.C. (1987). Human motivation. New York: University of Cambridge.
 5. Mead, George Herbert. 1982. The Individual and the Social Self: Unpublished Essays by G. H. Mead, edited by D. L. Miller. Chicago: University of Chicago Press. ISBN 978-0-608-09479-3
- REZYUME.** Bu maqolada o‘ziga ishonchini rivojlantirishda “o‘ziga ishonch”, “boshqalarga ishonch”, “emotsional barqarorlik” hamda “kognitivlik” omillarida qiyosiy natijalarning tahlili haqida ilmiy-nazariy ma’lumotlar berilgan.
- РЕЗЮМЕ.** В статье представлены научно-теоретические сведения об анализе сравнительных результатов по факторам «уверенность в себе», «доверие к другим», «эмоциональная устойчивость» и «когнитивность» в развитии уверенности в себе.
- SUMMARY.** This article provides scientific and theoretical information about the analysis of comparative results in the factors of "self-confidence", "trust in others", "emotional stability" and "cognitiveness" in the development of self-confidence.

O‘SMIR FUTBOLCHILARNING FAOLIYATIDAGI TO‘SIQ VA QIYIN VAZIYATLARGA PSIXIK BARQARORLIKNI TA‘MINLASH ASOSI

A.U.Xaitov – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

Tayanch so‘zlar: o‘smir, futbol, to‘siq, qiyin vaziyat, iroda, chidamlilik, tashabbuskorlik, psixik barqarorlik, musobaqa, motivatsiya, stress barqarorlik.

Ключевые слова: подросток, футбол, препятствие, трудная ситуация, воля, выносливость, инициатива, психическая устойчивость, соревнование, мотивация, стрессоустойчивость.

Key words: teenager, football, obstacle, difficult situation, will, endurance, initiative, mental stability, competition, motivation, stress resistance.

O‘smir futbolchilarni tarbiyalash va yuqori malakali futbolchi sifatida voyaga yetishiga zamin yaratish muhim vazifa hisoblanadi. Yosh futbolchilarni o‘smirlik davrida jismoniy psixologik rivojlanishiga e’tibor berish ularning keyingi davrdagi professional futbolchilik faoliyati samarali bo‘lishini ta’minlaydi [1]. O‘smirlarning futbol bilan shug‘ullanishi uchun musobaqalardan tashqari faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan turli to‘siq va qiyin vaziyatlar to‘sqinlik qilishi mumkin [3]. Bunday vaziyatlarni yengib o‘tish uchun o‘smirlarning irodasi yordam beradi [4]. O‘smirlarni musobaqalarga irodaviy tayyorlash orqali ularga ta’sir etayotgan musobaqa faoliyatidan tashqari to‘siqlarni bartaraf etiladi [2].

O‘smir futbolchilar faoliyatida qanday to‘siqlar yoki qiyin vaziyatlar mavjud ekanligini aniqlash va tahlil qilish talab qilinadi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun futbol maktab va tugaraklaridagi 511 nafar, (TGda 276 nafar, NGda 235) o‘smir futbolchilarda olib borilgan tadqiqotda “Futboldagi to‘siq va qiyinchiliklar” mualliflik so‘rovnomasi qo‘llanilib, TG va NG o‘smir futbolchilar faoliyatida aniq maqsad (67,7%), safarga uzoq yo‘l (88,9%), jismoniy yuklamalar (72,5%), yangi jamoa (87,2%), turli sharoitda o‘ynash (74,3%), jamoadoshlar (83,6%), oilaviy qarashlar (67,6%), yuqori natijaga ishonch (67,3%), jarohat olish xavotiri (57,5%) bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy qiyinchilik va to‘siqlar mavjud ekanligi aniqlangan.

O‘smir futbolchilarda ushbu to‘siqlar va qiyinchiliklarga bardoshlilikni shakllantirish, doimo

Tajriba guruhining natijalaridan ko‘rib turibmizki, talabarda o‘ziga munosabat adekvatlashgan. Bunda bo‘ljak pedagoglarning o‘ziga munosabatini ijtimoiy determinanti hisoblangan shaxslararo munosabatlardagi samimiylik konstruktiv muloqot o‘rnatish ko‘nikmasini shakllantirish orqali barqarorlashtirildi. Talabalarning o‘ziga ishonchini ko‘rsatib beruvchi subyektiv omillar, ya’ni o‘ziga ishonch, o‘zini idro qilish, o‘zini qabul qilish, o‘ziga munosabat bevosita hissiy hamda kognitiv sohaga korreksiona ta’sir etish orqali rivojlantirildi. Eng avvalo, bo‘ljak pedagoglarning o‘zi haqidagi tasavvurlari adekvatlashtirildi va o‘ziga ijobiy emotsional munosabat shakllantirildi. Shu orqali bo‘ljak pedagogning o‘zini qabul qilishi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchining ichki asoslari mustahkamlandi. Nazorat guruhi vakillarining natijalarida o‘zgarishlarni kuzatilmaganligi biz tomonimizdan taklif etilgan rivojlantiruvchi dasturning samaradorlik darajasini yana bir karra tasdiqlash imkonini beradi.

maqsad uchun olg‘a intilishini ta’minlash uchun TG ishtirokchilari mashg‘ulotlar jarayonida “Men chidamli bo‘laman” va “Men kuchli iroda egasiman” psixologik trening dasturi asosida ularning irodaviy tayyorgarligi olib borildi. TG ishtirokchilari bilan olib borilgan irodaviy tayyorgarlik natijasida ularga ta’sir etayotgan aniq maqsad (24,1%), safarga uzoq yo‘l (42,8%), jismoniy yuklamalar (36,4%), yangi jamoa (36,4%), turli sharoitda o‘ynash (41,9%), jamoadoshlar (31,8%), oilaviy qarashlar (36,2%), yuqori natijaga ishonch (18,6%), jarohat olish xavotiri (28,5%) bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy qiyinchilik va to‘siqlarning salbiy ta’siri pasayishiga erishildi.

O‘smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari vaziyatlarida yuzaga keladigan to‘siq va qiyinchilik omillarini yingib o‘tishda ularda shakllangan irodaviy sifatlar yordam beradi [6]. Futbolda musobaqa faoliyatidan tashqari vaziyatlarida yuzaga keladigan to‘siq va qiyinchilik omillari quyidagi beshta asosiy faktorlarga ajratildi:

- birinchi faktorga “futbolda aniq maqsad bo‘lishi”, “yuqori natijaga ishonch mavjudligi”, “texnik-taktik harakatlarni o‘zlashtirish” kabi vaziyatlar kiritilgan bo‘lib o‘smir futbolchilarning faoliyat maqsadi bilan bog‘liqlikni ifoda etadi.

- ikkinchi faktorga “doimiy jismoniy yuklamalar bajarish”, “jarohat olishdan xavotir me’yoriyligi”, “trener bilan ishlash” kabi vaziyatlar ajratilgan bo‘lib o‘smir futbolchilarning mashg‘ulotlar jarayonida belgilangan

jismoniy yuklamalarni bajarish, trener bilan mashg'ulotlar jarayonida ishtirok etishni ifodalaydi.

- uchinchi faktorga “kundalik rejimga rioya etish”, “safarlarga uzoq yo'l bosish”, “turli sharoitlarda o'ynash (ob-havo, muxlislar)” kabi vaziyatlar o'rin olgan bo'lib, o'smir futbolchilarning doimiy faoliyatida mavjud bo'lgan va unga rioya etishni talab etadigan vaziyatlar, uzoq safarlar, musobaqa jarayonidagi turli noqulay vaziyatlar keltirilgan.

- to'rtinchi faktorga “yangi jamoaga qo'shilish”, “jamoadoshlar bilan munosabat” kabi vaziyatlar kiritilgan. Bunday vaziyatlar o'smir futbolchilarning jamoaga nisbatan munosabati, yangi jamoaga qo'shilishda kuzatiladigan noqulayliklarni ko'rsatadi.

- beshinchi faktorga “o'qishdagi o'zlashtirish”, “oilaviy qarashlar”, “futboldan tashqari faoliyat” kabi vaziyatlar joylashgan. Ushbu vaziyatlar asosan o'smir futbolchilarning sport faoliyatidan tashqari bo'lgan faoliyat turlari bo'lgan vaziyatlarni namoyon etadi.

O'smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari jarayonlarda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlarda qaysi irodaviy sifatlarining o'rni yuqori ekanligi faktorli tahlil asosida aniqlandi. (1-jadval)

1-jadval. O'smir futbolchilarning faoliyatida yuzaga keladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengish uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlar $N=276$ (TG)

Irodaviy sifatlar	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor	5-faktor
Maqsadga intiluvchanlik	0,84**	0,72**	0,65**	0,57**	0,68**
Qat'iyat va matonat	0,78**	0,68**	0,71**	0,15*	0,73**
Jurat va jasorat	0,62**	0,61**	0,69**	0,16*	0,49**
Mustaqillik va tashabbuskorlik	0,71**	0,54**	0,14*	0,52**	0,61**
Sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish	0,67**	0,73**	0,56**	0,69**	0,56**
to'siqlarga chidamlilik	0,79**	0,56**	0,79**	0,53**	0,67**
iroda kuchi	0,81**	0,77**	0,73**	0,48**	0,54**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

O'smir futbolchilarning musobaqa faoliyatidan tashqari jarayonlarda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlarni yengib o'tish uchun ahamiyatli bo'lgan irodaviy sifatlarining tahlili:

Birinchi faktor bilan maqsadga intiluvchanlik ($r=0,84$), qat'iyat va matonat ($r=0,78$), mustaqillik va tashabbuskorlik ($r=0,71$), to'siqlarga chidamlilik ($r=0,79$) irodaviy sifatleri hamda iroda kuchi ($r=0,81$) yuqori bog'liqlikni ifodalagan. O'smir futbolchilar faoliyatida aniq maqsadning mavjudligi va yuqori maqsadga intiluvchanlik bilan harakat qilishi, yuqori natijaga ishonch mavjudligi va natija uchun qat'iyat, matonat bilan harakat qilishi, natijaga erishish yulida mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsata olishi lozim. Shu bilan birga futbolchilar to'siqlar va jarohat olish ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlarda chidamlilik namoyon etishi, irodasi kuchli bo'lishi kerakligi aniqlangan.

Ikkinchi faktor bilan maqsadga intiluvchanlik ($r=0,72$), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish ($r=0,73$) irodaviy sifatleri hamda iroda kuchi ($r=0,77$) yuqori bog'liqlikni ifodalagan. Futbolchilar doimiy jismoniy yuklamalarni aniq maqsadni ko'zlagan holda bajarishi va kuchli iroda ko'rsatishi, texnik-taktik harakatlarni maqsadli ravishda egallashi va bu jarayonda sabotli bo'lishi, trener bilan ishlash jarayonida o'zini nazorat qila olishi, trenerning har bir o'rgatgan ma'lumotini o'z faoliyat maqsadiga muvofiqlashtira olishi samarali natija beradi.

Uchinchi faktor bilan qat'iyat va matonat ($r=0,71$), to'siqlarga chidamlilik ($r=0,79$) irodaviy sifatleri hamda iroda kuchi ($r=0,73$) yuqori bog'liqlikni ifodalaydi. O'smir futbolchilarning kunlik belgilangan tartibga amal qilishi,

doimiy uzoq safarlarga borishiga va musobaqa jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarga chidamli bo'lishi, qiyin vaziyatlarda ham kuchli iroda ko'rsatib qat'iyat va matonat bilan harakat qilishi ularning faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.

To'rtinchi faktor bilan maqsadga intiluvchanlik ($r=0,57$), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish ($r=0,69$), to'siqlarga chidamlilik ($r=0,53$) irodaviy sifatleri ahamiyatli bog'liqlikka ega. O'smir futbolchilarning jamoa bilan yaxshi munosabatni yo'lga qo'yishida va yangi jamoaga qo'shilganda jamoaga tez moslashib ketishida maqsadga intilish bilan harakat qilishi, zarur vaziyatlarda sabotli bo'lishi va o'zini nazorat qilishi, yangi jamoada yuzaga kelgan qiyinchiliklarga chidamli bo'lishi ularning ijobiy bo'lishini ta'minlaydi.

Beshinchi faktor bilan qat'iyat va matonat ($r=0,73$) irodaviy sifati yuqori, maqsadga intiluvchanlik ($r=0,68$), to'siqlarga chidamlilik ($r=0,67$) irodaviy sifatleri ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Futbolchilarning sport faoliyatidan tashqari bo'lgan o'qish, tugaraklarga borish, oilada holat, do'stlar bilan munosabat kabi vaziyatlar ijobiy bo'lishi uchun ularning qat'iyat va matonatli bo'lishi, doimo maqsadga intilib harakat qilish, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish talab qilinadi.

O'smir futbolchilarda musobaqa faoliyatidan tashqari vaqtda paydo bo'ladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlar sportchilarning psixik barqarorligiga ta'sir etib, musobaqa jarayonidagi sportchining emotsional barqarorlik, o'zini boshqarish, musobaqa motivatsiyasi, stabililik-bardoshlilik, stress barqarorlik komponentlari buzilishiga sabab bo'ladi. [5]. Shu sababli to'siqlar va qiyin vaziyatlarni psixik barqarorlik komponentlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash orqali ma'lum bir to'siqni yengib o'tish orqali sportchining psixik qaysi barqarorlik komponenti me'yoriy darajada bo'lishini aniqlash mumkin. To'siqlar va qiyin vaziyatlar hamda psixik barqarorlik komponentlari o'zaro bog'liqligi faktorli tahlil asosida o'rganildi. (2-jadval)

2-jadval. O'smir futbolchilarda to'siq va qiyinchiliklarga nisbatan psixik barqarorlikni ta'minlash $N=276$ (TG)

Irodaviy sifatlar	1-faktor	2-faktor	3-faktor	4-faktor	5-faktor
emotsional barqarorlik	0,71**	0,73**	0,68**	0,61**	0,72**
o'zini boshqarish	0,83**	0,69**	0,72**	0,59*	0,75**
musobaqa motivatsiyasi	0,87**	0,74**	0,67**	0,71*	0,41**
stabililik-bardoshlilik	0,74**	0,61**	0,73*	0,75**	0,64**
stress barqaror	0,72**	0,68**	0,70**	0,64**	0,71**

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

O'smir futbolchilarda musobaqa faoliyatidan tashqari vaqtda yuzaga keladigan to'siqlar va qiyin vaziyatlarni yengib o'tish sportchining psixik barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatgichi tahlili:

Birinchi faktor bilan musobaqa motivatsiyasi ($r=0,87$), o'zini boshqarish ($r=0,83$), stabililik-bardoshlilik ($r=0,74$), stress barqarorlik ($r=0,72$), emotsional barqarorlik ($r=0,71$) yuqori bog'liqlikni ifodalagan. O'smir futbolchilarda aniq maqsad bo'lishi, yuqori natijaga ishonch mavjudligi, texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirishga yunalganligi musobaqa jarayonida sportchilarning psixik barqarorligini ta'minlashga asos bo'ladi. Shuningdek, sportchilar musobaqa davomida g'alaba motivatsiyasi yuqoriligini saqlaydi, o'zining taktik harakatlarini boshqaradi, turli tashqi ta'sirlarga bardoshli bo'ladi, emotsional holatini barqaror ushlaydi, stress ta'sirlarga berilmaydi.

Ikkinchi faktor bilan musobaqa motivatsiyasi ($r=0,74$), emotsional barqarorlik ($r=0,73$), yuqori bog'liqlik, o'zini boshqarish ($r=0,69$), stabililik-bardoshlilik ($r=0,61$), stress barqarorlik ($r=0,68$) ahamiyatli bog'liqlikni ifodalagan. Sportchilarda doimiy jismoniy yuklamalar bajarishga

yunalganlik, jarohat olishdan xavotir me'yoriyligi ta'minlanganligi, trener bilan ishlash istagi yuqoriligi ularning g'alabaga erishish motivatsiyasini oshiradi va futbol o'yini davomida emotsional barqarorligini ushlab turadi.

Uchinchi faktor bilan o'zini boshqarish ($r=0,72$), stabillik-bardoshlilik ($r=0,73$) yuqori bog'liqlik, musobaqa motivatsiyasi ($r=0,67$), emotsional barqarorlik ($r=0,68$), stress barqarorlik ($r=0,70$) ahamiyatli bog'liqlikni ifodalagan. Sportchilarning kundalik rejimga rioya etishi, safarlarga uzoq yo'l bosishga tayyorligi, turli sharoitlarda (ob-havo, muxlislar) futbol o'ynash qobiliyati ularning futbol o'yini davomida o'zining harakatlarini boshqara olish, turli tashqi ta'sirlarga yuqori bardoshlilikni ifoda etish imkoniyatini oshiradi.

To'rtinchi faktor bilan musobaqa motivatsiyasi ($r=0,71$), stabillik-bardoshlilik ($r=0,75$) yuqori bog'liqlik, o'zini boshqarish ($r=0,59$), emotsional barqarorlik ($r=0,61$), stress barqarorlik ($r=0,64$) ahamiyatli bog'liqlikni ifodalagan. Sportchilarning jamoadoshlar bilan munosabat ijobiy

bo'lishi, yangi jamoaga qo'shilganda tez moslashib ketishi ularning musobaqada g'alabaga erishish motivatsiyasi yuqoriligi, turli tashqi ta'sirlarga yuqori bardoshlilikni saqlab qolishiga yordam beradi.

Beshinchi faktor bilan emotsional barqarorlik ($r=0,72$), stress barqarorlik ($r=0,71$), o'zini boshqarish ($r=0,75$) yuqori bog'liqlik, stabillik-bardoshlilik ($r=0,64$) ahamiyatli bog'liqlik, musobaqa motivatsiyasi ($r=0,41$) o'rta bog'liqlikni ifodalagan. Sportchilarning o'qishdagi o'zlashtirish, oilaviy qarashlar, futboldan tashqari faoliyat turlari ijobiy bo'lishi ularning musobaqa davomida emotsional barqarorligi, stress barqarorligi, o'zini boshqarishi me'yoriyligini ta'minlashga asos bo'ladi.

Xulosa: O'smir futbolchilarning faoliyatida yuzaga keladiga to'siq va qiyinchiliklarga nisbatan chidamlilikni oshirish, ayniqsa musobaqa jarayonida sportchilarning psixik barqarorligini saqlab qolish hamda oldinga g'alaba sari intilishini ta'minlashda musobaqa faoliyatida yuqori natijaga erishish uchun asosiy omil ekanligi namoyon bo'lgan.

Adabiyotlar

1. Arziqulov D.N., Gapparov Z.G. Psixologiya va sport psixologiyasi. Darslik. – T.: “O'zkitobsavdonashriyoti” NMIU, 2021. 408-b.
2. Xaitov A.U. O'smir futbolchilar faoliyatida chidamlilik va iroda kuchini rivojlantirish.// «Fan va jamiyat». –Nukus: 2024. №3/2. 91-93-b.
3. Xaitov A.U. Konsultativ psixologiya va psixokorreksiya. O'quv qo'llanma. -T.: “O'zkitobsavdonashriyoti”, 2020. 156-b.
4. Бабушкин Г.Д., Смоленцева В.Н. Психология физической культуры и спорта : учебник для высших физкультурных учебных заведений. – Омск: СибГУФК, 2007. –С. 270.
5. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. СПб: «Питер», 2001. –С. 752.
6. Сопов В.Ф. Теория и методика психологической подготовки в современном спорте. Методическое пособие. -М.: 2010. – С.118.

REZYUME. Ushbu maqolada o'smir futbolchilar faoliyatida yuzaga keladigan to'siq va qiyin vaziyatning shakllari hamda ta'sir darajasi aniqlangan. Bunday vaziyatlarga sportchilarning chidamliligini oshirish zarur bo'lgan irodaviy sifatlar belgilangan. Musobaqa jarayonida o'smir futbolchilar psixik barqarorligini saqlab qolish uchun to'siq va qiyin vaziyatning psixik barqarorlik komponentlari bilan bog'liqligi ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье определены виды препятствий и сложных ситуаций, возникающих в деятельности футболистов-подростков, и уровень их влияния. Определены волевые качества, необходимые для повышения устойчивости спортсменов к подобным ситуациям. В целях сохранения психической устойчивости футболистов-подростков во время соревнований выявлена связь препятствий и сложных ситуаций с компонентами психической устойчивости.

SUMMARY. This article identifies the types of obstacles and difficult situations that arise in the activities of teenage football players and the level of their influence. The volitional qualities necessary to increase the athletes' resistance to such situations have been identified. In order to maintain the mental stability of teenage football players during competitions, a relation between obstacles and difficult situations with the components of mental stability has been identified.

UDK 159.922.6

ABROAD STUDY ABOUT THE PROBLEM OF CONCERN IN PRESCHOOL CHILDREN

S.G.Hasanova – associate professor

Andijan state university

Tayanch so'zlar: qo'rquv, xatti-harakatlar, tashvish, tashvish, ijtimoiy vaziyatlar, ijtimoiy muhit, yolg'izlik, xavf, tahdid.

Ключевые слова: страх, поведение, тревога, беспокойство, социальные ситуации, социальная среда, одиночество, опасность, угроза.

Key words: fear, behavior, anxiety, worry, social situations, social environment, loneliness, danger, threat.

Introduction. The mental development of preschool children is determined by their emotional stability. Usually, not only positive but also negative emotions play an important role in children's emotions, which negatively affects the general psychological state of the child, his activities, including education. As a result, in many cases, fear or anxiety completely engulfs the child's consciousness, thereby limiting his or her behavior and activities.

Today, as in all times, the upbringing of children, their development into full-fledged, full-fledged adults is an urgent issue. We will focus on the views and research of foreign scientists on the concerns that hinder the mental development of the child.

Concepts of anxiety began to appear in bion dictionaries in 1771. Researchers have studied the differences in the mental state of people and the causes of anxiety. Anxiety manifests itself in different forms in all children, and the presence of anxiety is described as a stable condition in this child [1].

We will look at different definitions of the problem of anxiety in the foreign and local literature.

K.Horny used the term anxiety as a synonym for the term “fear” and explained the relationship between them as

follows, both terms refer to an emotional response to risk. Fear is the certainty and objectivity of danger, while anxiety is latent and subjective [3].

J.A.Kelly, a representative of cognitive psychology, in his research linked anxiety in children to emotional manifestations. Anxiety in a child is manifested in two opposite poles, that is, emerging anxieties (similarity of the elements of emergence) and closed (contrast polarity).

The similarity of the elements of anxiety is manifested in a number of emotional states, such as fear, excitement, depression, and crying, which are present in the pole. In the closed (contrast pole), in children, anxiety is manifested internally, not externally in emotional states. For example, he says that we can see in situations such as lying, denying mistakes, slander [2].

According to Godefroy, anxiety is a transient condition in which a person is weakened when faced with an expected situation. Prolonged exposure to a stressful situation or condition can lead to fatigue as a result of the human body expending too much physiological energy [4].

As a result of his research, K. Rogers confirms J.A.Kelly's views on anxiety in children, including describing anxiety as an “emotional reaction to a threat” [5].